

**O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.35/30.12.2019.Isl/Tar/F.57.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI

BOBONAZAROV DAVRONBEK TO‘RANAZAR O‘G‘LI

**JAMOLIDDIN ZAYLAIYNING “NASBU-R-ROYA” ASARI HANAFIY
MAZHABIGA OID HADIS MANBASI**

24.00.02 – Qur’onshunoslik. Hadisshunoslik

**ISLOM SHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Islomshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Content of abstract of dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD) on
Islamic sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
исламоведческим наукам**

Bobonazarov Davronbek To‘ranazar o‘g‘li

Jamoliddin Zaylaiyning “Nasbu-r-roya” asari hanafiy mazhabiga oid hadis manbasi.....3

Bobonazarov Davronbek Turanazar ugli

Jamal al-din Zayla'i's "Nasb al-rayah" is a hadith source of the Hanafi mazhab.....21

Бобоназаров Давронбек Тураназар угли

Произведение «Насб ар-Рая» Джамалуддина Зайлаи как источник хадисов ханафитского мазхаба.....39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works

Список опубликованных работ.....44

**O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.35/30.12.2019.Isl/Tar/F.57.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI

BOBONAZAROV DAVRONBEK TO‘RANAZAR O‘G‘LI

**JAMOLIDDIN ZAYLAIYNING “NASBU-R-ROYA” ASARI HANAFIY
MAZHABIGA OID HADIS MANBASI**

24.00.02 – Qur’onshunoslik. Hadisshunoslik

**ISLOMSHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.4.PhD/Isl46 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasi (www.iiiau.uz) hamda “ZiyoNet” axborot-ta’lim portali (www.ziynet.uz)da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Muratov Doniyor Maxamatvaliyevich**
tarix fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar: **Muxamedov Ne‘matullo Asatullayevich**
tarix fanlari doktori, dotsent

Tajiyev Aziz Shavkatovich
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Yetakchi tashkilot: **Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.35/30.12.2019.Isl/Tar/F.57.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «__» may soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100011, Toshkent shahri, A.Qodiriy ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (99871) 2440056; faks: (99871) 2440065; e-mail: info@iiiau.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (151-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100011, Toshkent shahri, A. Qodiriy ko‘chasi, 11- uy. Tel.: (99871) 2440056; faks: (99871) 2440065; e-mail: info@iiiau.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «__» aprelda tarqatildi.
(2024-yil 18-apreldagi 4-raqamli reyestr bayonnomasi)

D.R. Maxsudov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori, professor

S.A. Rustamiy
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori, professor

Z.M. Islomov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda musulmonlarning 45 foizi ergashuvchi hanafiy mazhabi (المذهب الحنفي)ni o'rganish, uning Qur'on (القرآن) va sunnat (السنة)dan hukm olishga doir uslublarini aniqlash hamda hadislarni tushunish bilan bog'liq muammolarga yechim topishda foydalanishga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Hanafiy olimlari orasida yetuk muhaddis sifatida e'tirof etilgan Jamoliddin Zaylaiy (vaf. 762/1360)ning hadisga doir asarlari bu borada alohida e'tiborga molik. Uning "نصب الراية لأحاديث الهداية" (al-Hidoya hadislari uchun bayroq o'rnatish) asari hanafiy fiqhiy manbalaridan biri "الهداية شرح بداية المبتدى" (al-Hidoya – boshlang'ichlar uchun dastlabki ta'lim asariga sharh) hadislarining ilmiy-amaliy tadqiqi, ularning ishonchlilik darajalari va martabalarini bayon qilib bergani bilan ushbu mazhab hadisga oid asoslarini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyodagi islomshunoslik ilmiy-tadqiqot markazlarida Jamoliddin Zaylaiyning hadis ilmlariga doir merosini o'rganish yuzasidan tizimli tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu tadqiqotlar hadisshunoslik doirasida amalga oshirilib, ularda muhaddisning hadislarni "taxrij" (التخرīj – manbalardagi asosini ko'rsatish) qilishdagi uslubi, kitoblaridagi "jarh va ta'dil" (الجرح و التعديل) ilmlariga doir ma'lumotlarga e'tibor qaratilmoqda. "Nasbu-r-roya" asarining hanafiy mazhabi hukmlarini dalillash, hadislardagi asoslarini ko'rsatib berishdagi ahamiyatidan kelib chiqib, mazhabsizlik, mazhablarni inkor etishga qaratilgan chaqiriqlarga raddiya berishda foydalanish imkoniyatlarini aniqlash yuzasidan tadqiqotlar olib borish mumkin.

Yangi O'zbekistonda diniy-ma'rifiy sohada olib borilayotgan islohotlar natijasida buyuk allomalimiz asos solgan hadis ilmi an'alarini qayta tiklash va rivojlantirish, ular qoldirgan boy ilmiy merosni o'rganish va keng jamoatchilikka yetkazish maqsadida Samarqandda "Hadis ilmi maktabi", Surxondaryoda "Imom Termiziy" o'rta maxsus islom ta'lim muassasalari ochildi, shuningdek, yurtimizdan yetishib chiqqan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Burhoniddin Marg'inoniy, Abu-l-Barokot Nasafiy kabi muhaddis va faqih allomalarning ilmiy meroslari tadqiq etilmoqda. Burhoniddin Marg'inoniyning "al-Hidoya" asari ilk bor to'liq akademik tarjima va sharh qilinib, nashr etildi. E'tiborli jihati, unda Jamoliddin Zaylaiyning "Nasbu-r-roya" asari asosida hadislarga izoh berib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-apreldagi PF-5416-son "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-fevraldagi PQ-2774-son "Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jamoliddin Zaylaiy hayoti, faoliyati hamda ilmiy-ma’naviy merosini o‘rganish yuzasidan arab, turk va hind olimlari tadqiqotlar amalga oshirganlar.

Dastlab Ibn Hajar Asqaloniy (vaf. 852/1449), Jaloliddin Suyutiy (vaf. 911/1505), Abdulhay Laknaviy (vaf. 1304/1886) va Zohid Kavariy (vaf. 1371/1952)¹ kabi olimlar Jamoliddin Zaylaiyning ilmiy merosini chuqur o‘rganib, uning “Nasbu-r-roya” asariga muxtasar va muqaddima yozganlar.

So‘nggi yillarda arab tadqiqotchilaridan Hofiz Sanoullah Zohidiy, Ubaydulloh ibn Saydon, Muhammad ibn Ahmad, Muhammad Avvoma, Mansur Mahmud Muhammad Sharoyiriy, Shayma Badr Nosir Mutiriy hamda Zakiya bint Ahmad² kabilar Jamoliddin Zaylaiyning hayoti va asarlari, xususan “Nasbu-r-roya” asari uslubi haqida ma’lumotlar bergan.

Turk olimlaridan Nuri Tug‘lu, Yusuf Achar, Husayn Qahramon ushbu mavzu doirasida tadqiqot olib borganlar³. Nuri Tug‘lu Jamoliddin Zaylaiyning hayoti va “Nasbu-r-roya” asarini tadqiq qilib, muallifning hadisga doir metodologiyasini ochib bergan. Yusuf Achar “Nasbu-r-roya” asarini boshqa taxrij asarlar bilan qiyosiy tadqiq qilgan. Husayn Qahramon esa Jamoliddin Zaylaiyning fiqhiy qarashlariga e’tibor qaratgan.

Muhammad Ma’ruf Hanif Haraviy 2018-yil Pokiston xalqaro islom universitetida “an-Naqdu-l-hadisiy inda-l-hofiz az-Zaylaiy min xilali kitobihi Nasbu-r-roya fi taxriji ahodisi-l-Hidoya” mavzusida doktorlik⁴ ishini amalga oshirgan. Unda muhaddisning hadislar tadqiqidagi uslublari tahlil qilingan.

¹ Ibn Hajar Asqaloniy. Ad-Duraru-l-kaamina. – Haydarobod: Dairatu-l-maorifi-l-usmoniyya, 1993. – J. II. – B. 417; Ibn Hajar Asqaloniy. Ad-Diroya fi taxriji ahodisi-l-Hidoya. – Bayrut: Doru-l-ma’rifa. – 2 j; Jaloliddin Suyutiy. Tabaqotu-l-huffoz. – Bayrut: Doru-l-kutubi-l-ilmiyya, 1983. – B. 531; Abdulhay Laknaviy. Favoidu-l-bahiyya fi tarajimi-l-hanafiyya. – Misr: Matbaatu-s-saodat, 1906. – B. 228; Muhammad Zohid Kavariy. Zaylu tazkiroti-l-huffoz. – Damashq: al-Qudsiy. – B. 129; Muhammad Zohid Kavariy. Muqaddimatu Nasbu-r-roya // Jamoliddin Zaylaiy. Nasbu-r-roya li ahodisi-l-Hidoya. – Hindiston, 1938.

² Hofiz Sanoullah Zohidiy. Tahqiqu-l-g‘oya bi tartibi-r-ruvoti-l-mutarjami lahum fi Nasbu-r-roya. –1987; Ubaydulloh ibn Saydon. Al-Imomu-z-Zaylaiy va manhajuhu fi Nasbu-r-roya. – Zaytuniya universiteti, 1992; Muhammad ibn Ahmad. Al-Imomu-z-Zaylaiy muhaddisan. – Madina islom universiteti, 1992; Muhammad Avvoma. The Life & Works of Hāfiz al-Zayla‘i, Author of Nasb al-Rāyah. – 2018. <https://www.ilmgate.org>; Mansur Mahmud Muhammad Sharoyiriy. Manhaju-l-imomi-z-Zaylaiy fi kitobihi Nasbu-r-roya. – Urduniya universiteti, 1999; Shayma Badr Nosir Mutiriy. Al-Imomu-z-Zaylaiy va manhajuhu fi naqdi-r-rijol va ahvolihim fi-l-jarh va-t-ta’dil min xiloli kitobihi Nasbu-r-roya. – Quvayt universiteti, 2010; Zakiya bint Ahmad. Manhaju-l-imomi-z-Zaylaiy fi ilmi-r-rijol va ahvolihim fi kitobi Nasbu-r-roya. – Saudiya, 2019.

³ Nuri Tuğlu. Abdullah bin Yūsuf ez-Zeyla‘i ve Nasbu‘r-roye adlı eserindeki hadisciliği. – Konya, 1996; Yusuf Achar. Zeyla‘in İbnü‘t-Türkmânî İle Kuraşî Eleştirileri ve Üç hadisçi Arasındaki İlişkiler. – Ankara, 2011; Yusuf Achar. Hanefi fikih kitaplarındaki bazı rivayetlerin hadis açısından problemleri. – Ankara, 2011; Hüseyin Kahraman. Hadislere göre kusmanın abdeste etkisi. – Uludağ üniversitesi, 2009.

⁴ Muhammad Ma’ruf. An-Naqdu-l-hadisiy inda-l-hofiz Zaylaiy min xiloli kitobihi Nasbu-r-roya fi taxriji ahodisi-l-Hidoya. – Islomobod: Pokiston xalqaro islom universiteti, 2018. – 547 b.

O‘zbekistonda Jamoliddin Zaylaiyning ilmiy faoliyati alohida tadqiqot doirasida o‘rganilmagan bo‘lsa-da, bu borada bir qator olimlar muhim ma‘lumotlarni keltirib o‘tganlar. Jumladan, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Burhoniddin Ahmedov, Doniyor Muratov, Hamidulla Aminov, Soatmurod Primovning⁵ ilmiy tadqiqotlarini keltirish mumkin. Mazkur tadqiqotlarda muhaddisning ibratli hayoti va asarlarining mohiyati turli rakurslardan ochib berilgan.

Sanab o‘tilgan tadqiqotlarda olimning hayoti, muhaddislik faoliyati, jarh va ta‘dil ilmlarida tutgan o‘rni, hadislar taxrijida qo‘llagan usullari haqida keng ko‘lamli izlanishlar olib borilgan bo‘lsa-da, “Nasbu-r-roya” asarining hanafiy mazhabida tutgan o‘rni kompleks o‘rganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasida 2020-2022-yillarga mo‘ljallangan FZ-202002146 – “Markaziy Osiyo mutafakkirlari asarlari asosida buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi kurashning ma‘rifiy, tarbiyaviy asoslarini o‘zida jamlagan multimedia dasturi hamda mobil ilovasini yaratish” mavzuidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Jamoliddin Zaylaiyning “Nasbu-r-roya” asari hanafiy mazhabi dalillariga oid hadis manbasi ekanini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

hanafiy muhaddislarining taxrij ilmi borasidagi ilmiy faoliyatlarini ochib berish;

Jamoliddin Zaylaiyning faoliyati va ilmiy merosining hanafiy mazhabi hadis ilmlari rivojidadagi o‘rmini belgilash;

“Nasbu-r-roya” asarining taxrij ilmidagi ahamiyati va uning boshqa taxrij asarlardan afzalliklarini ilmiy asoslab berish;

asarning dunyo kutubxonalarida saqlanayotgan qo‘lyozma nusxalari tahlilini amalga oshirish;

Zaylaiyning hadislarini taxrij va tahlil qilishda qo‘llagan uslublari xususiyatlarini aniqlash;

hadislarni taxrij qilishda foydalanilgan manbalarni turlarga ko‘ra tasniflash;

“Nasbu-r-roya” asari hanafiy mazhabi olimlari nazdida e‘tiborli hadis manbasi ekanini yoritish;

“Al-Hidoya”dagi hadislarini tadqiq etishda “Nasbu-r-roya”ning ahamiyatini ko‘rsatib berish;

“Nasbu-r-roya” asarida qo‘llangan hadis ilmiga oid tushunchalarning talqinini yoritish hamda mavzu yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

⁵ Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Фикҳий йўналиш ва китоблар. – Тошкент: Хилол-Нашр, 2019. – Б. 210; Бурхониддин Аҳмедов. Ҳадислар ханафий мазҳаби ҳукмлари манбаси сифатида // монография. – Тошкент: Ўзбекистон халқаро ислом академияси, 2021. – Б. 90; Дониёр Муратов. Ҳадис тўпламларининг қиёсий таҳлили. Матн: ўқув қўлланма. – Тошкент: Комплекс принт, 2019. – Б. 48, 56; Ҳамидулла Аминов, Соатмурод Примов. Ҳанафий фикҳи тарихи, манбалари ва истилоҳлари. – Тошкент: Мовароуннахр, 2017. – Б. 74.

Tadqiqotning obyektini Jamoliddin Zaylaiyning “Nasbu-r-roya” asari tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti Jamoliddin Zaylaiyning “Nasbu-r-roya” asaridagi hanafiy mazhabi hukmlarini dalillovchi hadis ilmiga doir ma’lumotlardan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada kompleks yondashuv, qiyosiylik, tavsifiy va tasnifiylik, shuningdek, tarixiylik va mantiqiylik tamoyillaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Jamoliddin Zaylaiy “Nasbu-r-roya”da muhaddislar tomonidan zaif deya baholangan “al-Hidoya”ning ba’zi rivoyatlarini boshqa ishonchli hadislar bilan mustahkamlab, hadis ilmidagi “bir birini quvvatlovchi” (يقوي بعضها البعض) uslubini qo‘llash orqali hanafiy mazhabi kitoblaridagi hadislarning ishonchli yo‘llarini ko‘rsatib bergani isbotlangan;

Zaylaiy “al-Hidoya”da rivoyat qilinmagan, lekin mavzuga bog‘liq 7055 ta hadis va osor keltirib, ularning ishonchliligi va manbalardagi o‘rinlarini bayon qilib bergani bois bir mavzuga doir hadislarni “Nasbu-r-roya” asarida topish imkoni mavjudligi isbotlangan;

Zaylaiy “al-Hidoya”da kelgan hadislarning ishonchlilik darajasini bayon qilish uchun “g‘arib” (غريب), “g‘arib jiddan” (غريب جدا), “g‘arib bi haza-l-lafz” (غريب بهذا اللفظ), “g‘arib marfu” (غريب مرفوعا) kabi boshqa taxrij manbalarda uchramaydigan istilohlardan foydalanib, taxrij ilmiga yangi uslub olib kirgani ochib berilgan;

Zaylaiy hadis ilmi (علم الحديث)ga doir masalalarda o‘zidan oldingi taxrij olimlarida uchramagan “hadisning barcha rivoyat yo‘llarini keltirish”, “osorlarni keltirish”, “roviylarga doir ma’lumotlarni keltirish”, “turli fan manbalariga murojaat qilish”, “muxoliflarni tanqid qilmaslik” metodlarini “Nasbu-r-roya”da qo‘llab, umumlashtirish uslubidan foydalangani dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

Jamoliddin Zaylaiy “al-Hidoya”da kelgan 1080 ta hadisning manbalari haqida ma’lumot bergani hamda ularni quvvatlash, ishonchliligini oshirish maqsadida qo‘shimcha 7055 ta hadis va osor keltirgani natijasida “Nasbu-r-roya” jami 8135 ta rivoyatni jamlagan hadis to‘plamiga aylangani dalillangan;

Turkiya, Hindiston, Misr, Saudiya Arabistoni kabi davlatlar kutubxonalaridan “Nasbu-r-roya” asarining 11 ta noyob qo‘lyozmalari aniqlanib, qiyosiy tahlil qilinishi natijasida asar 52 ta mustaqil bo‘lim (kitob), 85 ta bob, 23 ta fasl va oxirida “turli masalalar” bo‘limidan iborat ekani, ushbu nusxalardagi juz’iy farqlar asarning umumiy holatiga ta’sir etmagani asoslangan;

“Nasbu-r-roya” asari o‘zida fiqhiy hukmlarni dalillovchi hadislar taxriji va roviylar haqidagi ko‘plab ma’lumotlarni qamrab olgani sabab hanafiy mazhabi olimlaridan Abdulhay Laknaviy “at-Ta’liq-l-mumajjad”da, Taqiyuddin Nadaviy “at-Ta’liq-l-mumajjad” tahqiqida, Muhammad Avvoma “Asaru-l-hadisi-sharif”da, Said Bektosh “al-Lubob” tahqiqida, A’zamjon Qambarov “al-Hidoya” tarjimasida fiqhiy ixtilofli masalalar va hadislar tahlilida undan unumli foydalanganlari ochib berilgan;

Zaylaiyning hadislarni saralash va rivoyatlar o'rtasidagi ixtiloflarni bartaraf etish borasidagi hadis ilmi (علم الحديث)ga doir masalalardagi "hadisning barcha rivoyat yo'llarini keltirish", "osorlarni keltirish", "eng sahihini birinchi keltirish", "turli fan manbalariga murojaat qilish", "muxoliflarni tanqid qilmaslik" kabi metodlari aniqlanib, ulardan hadislarni noto'g'ri tushunish va talqin etishning oldini olishning ma'rifiy asoslarini ishlab chiqishga doir amaliy taklif va tavsiyalar taqdim etish mumkinligi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Jamoliddin Zaylaiyning "Nasbu-r-roya" asarining Turkiya Respublikasi Istanbul shahri "Millet Yazma Eser Kütüphânesi Feyzullah Efendi Koleksiyonu"dagi 287 inventar raqami ostida saqlanayotgan va "Atif Efendi kütüphanesi"dagi 494 inventar raqami ostida saqlanayotgan qo'lyozma nusxalari hamda Muhammad Avvoma tomonidan amalga oshirilgan zamonaviy nashr matniga tayanilgani, dalillar bilan asoslangani, zamonaviy qiyosiy-tarixiy usullardan foydalanilgani hamda Sharq va G'arb islomshunoslik maktablarida shakllangan qator ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilganligi, tadqiqot natijalarining vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati musulmon huquqiy amaliyoti, xususan, hanafiy mazhabida hukmiy hadislarni dalil sifatida qo'llash tizimini tartibga solishning o'ziga xos mezoni va xususiyatlarini o'rganish bo'yicha ilmiy-nazariy bilimlarni boyitish va yangi nazariya hamda tadqiqotlarni shakllantirish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy va o'rta maxsus diniy bilim yurtlarida o'qitiladigan "Hadisshunoslik", "Hadisshunoslikning zamonaviy masalalari", "Hadis roviylari, jarh va ta'dil ilmi", "Isnodlar tahlili va taxrij ilmi", "Hadis fihi" kabi fanlar mazmunini yangi nazariy ishlanmalar bilan boyitish, sohaga oid fakultativ darslar, seminar mashg'ulotlari va maxsus kurslarni ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Jamoliddin Zaylaiyning "Nasbu-r-roya" asari hanafiy mazhabiga oid hadis manbasi ekanligi bo'yicha olib borilgan tadqiqotning ilmiy natijalari asosida:

Jamoliddin Zaylaiy "Nasbu-r-roya"da muhaddislar tomonidan zaif deya baholangan "al-Hidoya" rivoyatlarini boshqa ishonchli hadislar bilan mustahkamlab, ularning "bir birini quvvatlovchi" (يقوي بعضها البعض) ekani sababidan "maqbul" hadisga aylanishini asoslash orqali hanafiy mazhabi dalillari hatto muhaddislar yo'li bilan ham ishonchli ekanini ko'rsatgani haqidagi ilmiy xulosalar Din ishlari bo'yicha qo'mitaning buyurtmasi asosida tayyorlangan "Islom ensiklopediyasi" kitobi mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mitaning 2024-yil 28-fevraldagi 02-02/02/1/573-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, muhaddisning taxrij ilmi nazariyasi shakllanishidagi o'rni va xizmatlari haqidagi ma'lumotlar ilmiy jamoatchilikka yetib borishiga xizmat qilgan;

Zaylaiy "al-Hidoya"da rivoyat qilinmagan, lekin uning boblariga bog'liq hadislarni "shu bobning hadislari" (أحاديث الباب) nomi ostida keltirgani hamda

ularning ishonchliligi va manbalardagi o‘rinlarini bayon qilib bergani bois keyingi davr faqihlari uchun fiqhiy mavzular doirasidagi tadqiqotlar uchun asosiy manbalar qatoriga kirgani haqidagi xulosalardan Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining buyurtmasi asosida tayyorlangan “O‘rta asr sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy-falsafiy merosi” nomli kitob mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2024-yil 12-fevraldagi 02/50-son ma’lumotnomasi). Natijada, olimning hadis ilmi nazariyalari shakllanishidagi o‘rni va xizmatlari haqidagi ma’lumotlar ilmiy jamoatchilikka yetib borishiga xizmat qilgan;

Zaylaiy “al-Hidoya”da kelgan hadislarining ishonchlilik darajasini bayon qilish uchun “g‘arib” (غريب), “g‘arib jiddan” (غريب جدا), “g‘arib bi haza-l-lafz” (غريب بهذا اللفظ), “g‘arib marfu” (غريب مرفوعا) kabi boshqa taxrij manbalarda uchramaydigan istilohlardan foydalanib, taxrij ilmiga yangi uslub olib kirgani haqidagi ilmiy xulosalar Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom institutining “Hanafiy faqihlar nazdida hadis ilmi qoidalari” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston musulmonlari idorasining 2024-yil 13-fevraldagi 02-10/31-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, talabalarning Jamoliddin Zaylaiy “Nasbu-r-roya” asari fiqhiy ixtilofli hukmlarning dalillarini tarjih qilishda faqih va muhaddislar uchun muhim bir hadis manbasi bo‘lib xizmat qilishi to‘g‘risidagi bilimlari boyishiga xizmat qilgan;

Zaylaiy hadis ilmi (علم الحديث)ga doir masalalarda o‘zidan oldingi taxrij olimlarida uchramagan “hadisning barcha rivoyat yo‘llarini keltirish”, “osorlarni keltirish”, “roviylarga doir ma’lumotlarni keltirish”, “turli fan manbalariga murojaat qilish”, “muxoliflarni tanqid qilmaslik” metodlarini “Nasbu-r-roya”da qo‘llab, umumlashtirish uslubidan foydalangani haqidagi ilmiy xulosalar O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasida tayyorlangan “Hadisshunoslik” darsligi mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitaning 2024-yil 28-fevraldagi 02-02/02/1/573-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, talabalarda “Nasbu-r-roya” asari hanafiy mazhabi olimlari bilan birgalikda, qolgan mazhab olimlari ham murojaat qiluvchi muhim hadis manbasi ekani to‘g‘risidagi tasavvur va ko‘nikmalarni shakllantirgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha 10 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, shundan, 2 tasi xorijiy jurnalda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 131 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsad va vazifalari, o'rganish obyekti va predmeti aniqlangan. Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilib, ishning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan holda ularning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprobatsiyasi, natijalari, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Jamoliddin Zaylaiy “Nasbu-r-roya” asarini o'rganishning metodologik asoslari**”, deb nomlangan birinchi bobning *“Hanafiy olimlarining taxrij ilmidagi faoliyatlari”* deya nomlangan birinchi paragrafida IV-VI/X-XII asrlar fiqh, tasavvuf, tarix, adabiyot manbalarida hadislarni sanadsiz keltirish an'anasi shakllangani, undan keyingi davrlarda esa mazkur manbalardagi hadislarga nisbatan shubha uyg'onib, mashhur asarlarning tanqid qilinishi natijasida hadislarning sanadi, manbasi va ishonchlilik darajasini aniqlash kabi vazifalarni o'z ichiga oluvchi yangi tadqiqot turi – *“taxriju-l-ahodis”* (تخریج الأحادیث) alohida ilm sifatida shakllangani o'rganilgan. Ba'zi olimlar hadislarga nisbat bergan, ularning manbalari haqida bahs yuritgan va darajalarini bayon qilgan ilk muhaddis Yahyo ibn Sharaf Navaviy (vaf. 676/1277) ekanini ta'kidlasalar-da, undan oldin Xatib Bag'dodiy (vaf. 463/1061) Abu Qosim Mihrovaniy (vaf. 468/1066)ning *“al-Favoidu-l-muntaxabatu-s-sihoh va-l-g'arob”*, muhaddis Hozimiy (vaf. 584/1189) shofeyy fiqhiga doir *“al-Muhazzab”* asarlarida kelgan hadislar manbasiga aniqlik kiritganlari ma'lum. Shundan so'ng, aqid, fiqh, tafsir, tasavvuf va tarixga oid manbalardagi hadislarni aniqlashtiruvchi taxrij asarlar soni ko'paydi. Bu o'z navbatida xalq orasida keng yoyilgan sahih, zaif va hatto to'qima hadislarning ishonchlilik darajalarini bayon qilishga hamda hadislariga ishonchsizlik bilan qaralgan mo'tabar asarlar borasidagi shubhalarni ketkazdi. Shu nuqtai nazardan taxrij ilmini o'rganish katta ahamiyatga ega hisoblanadi⁶.

Ilmiy tadqiqot jarayonida, mavzu nomidan kelib chiqqan holda hanafiy mazhabi olimlarining taxrij ilmida olib borgan ilmiy faoliyatlari ham o'rganildi. Aytish lozimki, hanafiy mazhabi olimlari bu sohada salmoqli ishlarni amalga oshirganlar. Jumladan, Alovuddin ibn Turkmoniy (vaf. 750/1349), Abdulqodir Qurashiy (vaf. 775/1373), Jamoliddin Zaylaiy (vaf. 762/1360), Qosim ibn Qutlubog'a (vaf. 879/1475), Mulla Ali Qori (vaf. 1014/1606), Shayx Abdulg'ani Nobulsiy (vaf. 1143/1731), Muhammad ibn Mahmud Tarabzuniy (vaf. 1200/1795) kabi olimlar fiqh, aqid, tasaffuv va siyrat yo'nalishiga doir manbalardagi hadislarni taxrij qilishgan.

Bobning *“Jamoliddin Zaylaiyning hadis ilmlari rivojiga qo'shgan hissasi”* deb nomlangan ikkinchi paragrafida Jamoliddin Zaylaiyning tug'ilgan va vafot etgan sanasi, ustoz va shogirdlari, ilmiy faoliyati hamda asarlariga doir

⁶ Mahmud Tahhon. Usulu-t-taxrij. – Bayrut: Doru-l-Qur'oni-l-karim, 1979. – B. 12-14.

ma'lumotlar jamlanib, tahlil etilgan. Jumladan, ma'lumotlarga tayanib, hofiz Jamoliddin Abu Muhammad Abdulloh ibn Yusuf ibn Muhammad Zaylaiy Hanafiy Misriy taqriban 720/1320-yilda tug'ilganini taxmin qilish mumkin. Olimning vafot etgan sanasi esa aniq sana 762-yil muharram oyi (mil. 1360-yil noyabr) bilan ko'rsatilgan⁷. Zaylaiy Misrda hadis ilmlari yangi bir bosqichga chiqqan, hadislardan ta'lim beriladigan maxsus darsxonalar – "doru-l-hadis"lar (دار الحديث) rivojlangan davrda yashab o'tdi. U yoshligidan ilmga kirishib, zamonasining eng mashhur fiqh va hadis ustozlari bo'lgan Faxruddin Zaylaiy (vaf. 743/1343), Alovuddin ibn Turkmoniy (vaf. 750/1349), Abu Hajjoj Mizziy (vaf. 742/1342) va Shamsuddin Zahabiy (vaf. 747/1347) kabi olimlardan ta'lim oldi. Nahv, lug'at, fiqh, tafsir ilmlarini egallaganidan so'ng hadis ilmlarini chuqur o'rganib, shu sohada mutaxassis bo'lgan.

Zaylaiydan qolgan ilmiy meros ko'p bo'lmasa-da, biroq manfaati ko'p va tez-tez murojaat qilinadigan asarlar hisoblanadi. Jumladan, olim hanafiy mazhabining mo'tabar fiqhiy manbalaridan biri "al-Hidoya" hadislarini o'rganib, taxrij ilmida muhim manba hisoblangan "Nasbu-r-roya li-ahodisi-l-Hidoya" ("al-Hidoya hadislarini uchun bayroq o'rnatish") va tafsir ilmiga doir mashhur "al-Kashshof" asari hadislarini o'rganib, "al-Is'of bi taxriji ahodisi-l-Kashshof" ("al-Kashshof hadislarini aniqlashga yordam") asarlarini yozgan. Ko'pchilik mutaqqaddim ulamolar uning faqat yuqoridagi ikki asarini tilga olishgan bo'lsa, bugungi kunning muhaqqiq ulamolaridan biri Muhammad Avvoma (tug'. 1940) Zaylaiyga taalluqli yana bir ilmiy meros: "Muxtasaru maoni-l-osor li-t-Tahoviy" ("Tahoviyning "Hadis va xabarlar ma'nolari" asari muxtasari") asari ham borlini aniqlagan⁸. Zaylaiyning ilmiy faoliyati uning yuksak saviyadagi taxrij asarlar yozib qoldirish orqali ahli sunna va-l-jamoa, ayniqsa, hanafiy mazhabi hadis ilmi rivojiga katta hissa qo'shgani bilan asoslanadi.

Ushbu bobning "*Nasbu-r-roya*" asarini tadqiq etishdagi yondashuvlar" deb nomlangan uchinchi paragrafida asarning taxrij ilmidagi ahamiyati, o'ziga xos xususiyatlari, boshqa taxrij asarlardan afzalliklari qiyosiy tadqiq qilingan.

"Nasbu-r-roya" asari hanafiy mazhabining muhim hadis manbalaridan biri bo'lishi bilan birga boshqa mazhablarda ham mo'tabar hisoblanib, keng miqyosda foydalaniladi. Zaylaiy keltirilgan dalillarning sanadlarini, ulardagi roviylarning holatini chuqur o'rgangan, sahihlik va zaiflik darajalarini aniqlagan hamda "fiqhu-l-hadis" ilmini rivojlantirgan. Hadislarni mo'tabar manbalardan taxrij qilarkan, ularga usulu-l-hadis qoidalari doirasida yondoshgan. Ham matn ham sanad bo'yicha tadqiqot olib borib, avval o'tgan muhaddislar hamda o'zining ilmiga suyanib, roviylarning zaif va ishonchliligi, jarh va ta'dilini amalga oshirgan.

Zaylaiyning asarida ko'plab hadis taxriji kitoblarida bo'lmagan bir xususiyat bo'lib, u roviylarga oid nasab, kunya, nisbat va boshqa ma'lumotlarning zikr

⁷ Ibn Hajar Asqaloniy. Ad-Duraru-l-kamina. – Haydarobod: Dairatu-l-maorifi-l-usmoniya, 1993. – J. II. – B. 417; Jaloliddin Suyutiy. Tabaqotu-l-huffoz. – Bayrut: Doru-l-kutubi-l-ilmiya, 1983. – B. 535; Jaloliddin Suyutiy. Husnu-l-muhodara. – Dor ihoyi-l-kutubi-l-arobiya, 1967. – J. I. – B. 359. Abdulhay Laknaviy. Favoidu-l-bahiyya. – Misr: Matbaatu-s-saodat, 1906. – B. 229.

⁸ Zohid Kavariy. Al-Hoviy fi siyrati Abu Ja'far Tahoviy. – Qohira: Matbaatu-l-anvor, 1949. – B. 33; Muhammad Avvoma. The Life & Works of Hāfiẓ al-Zayla'ī, Author of Nasb al-Rāyah // 2018. <https://www.ilmgate.org>

etilishi hisoblanadi. “Nasbu-r-roya”dan oldin va keyin yozilgan: Ibn Adiy (vaf. 365/976) va Ibn Abu Hotim (vaf. 327/939)larning asarlarida, Bayhaqiy (vaf. 458/1065)ning “al-Xilofiyot” va “Kitobu-l-ma’rifa”sida, Taqiyuddin ibn Daqiq Iyd (vaf. 702/1302)ning “al-Imom” va “al-Ilmom”ida, Ibn Javziy (vaf. 597/1201)ning “Jomeu-l-masonid”, “al-I’lalu-l-mutanohiya” va “Kitobu-t-tahqiq” kabi kitoblarida, Ibn Hajar (vaf. 852/1448)ning “ad-Diroya”sida, Qosim ibn Qutlubog‘a (vaf. 879/1474)ning “Nasbu-r-roya”ga yozgan ta’liqi “Munyatu-l-Almaiyy” asarlarida ushbu xususiyatlar (ya’ni, roviylarning nasabi, kunyasi, nisbati) uchramaydi.

Dissertatsiyaning “**Nasbu-r-roya**” asarining taxrij ilmi rivojidadagi o‘rni” deb nomlangan ikkinchi bobining “*Nasbu-r-roya*” qo‘lyozmalari manbashunoslik tahlili” nomli birinchi paragrafida asarning bugungi kunda dunyo kutubxonalarida saqlanib kelayotgan qo‘lyozma nusxalarining o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan.

“Nasbu-r-roya” asarining jahon kutubxona va fondlarida 11 ta qo‘lyozma nusxalari aniqlandi. Jumladan, Turkiya, Hindiston, Misr, Saudiya Arabistonida asarning noyob qo‘lyozma nusxalari saqlanadi⁹.

Mazkur qo‘lyozmalarning ko‘chirilish sanasiga e’tibor qaratsa, ularning ichida eng qadimiysi Turkiya milliy kutubxonasi “Fayzulloh Afandi” to‘plamidagi 287 raqam ostida saqlanayotgan nusxa hisoblanadi. U 808/1405- yil Hammud ibn Abdurahmon tomonidan ko‘chirilgan. Qadimiylik bo‘yicha ikkinchi o‘rinda Hindistonning Haydarobod shahri “Asafiya” kutubxonasida saqlanayotgan nusxa turadi. IX/XV asrga tegishli ushbu nusxa Jamoliddin Zaylaiy vafotidan bir asr o‘tib ko‘chirilgan. Makka shahri “Haram” kutubxonasidagi 1251 raqamli qo‘lyozma esa qadimiy nusxalarning uchinchisi hisoblanadi. U Hijriy 1134/1722-yilda ko‘chirilgan. Qolgan nusxalar esa 1730-1912-yillar oralig‘iga tegishli.

Turkiya milliy kutubxonasi (Millet genel kütüphanesi) “Fayzulloh Afandi” to‘plamidagi 287 raqam ostidagi¹⁰ qo‘lyozmaning birinchi betida asar hijriy 1113/1701-yil Fayzulloh Afandi tomonidan vaqf qilingani haqidagi muhr mavjud. Qiziq tomoni ushbu qo‘lyozmaning boshi va oxirida asarning nomi “al-Inoya bi ahodisi-l-Hidoya” deb keltirilgan. Muallifning ismi esa “Jamoliddin Abdulloh ibn Yusuf” sifatida to‘g‘ri berilgan. Ma’lumki, “al-Inoya” nomli taxrij asar Zaylaiyning hamasri Abdulqodir Qurashiyga tegishli¹¹. Demak, kotib asarning nomini yozishda adashgan bo‘lishi mumkin. Chunki, asar ichki qismining barchasi “Nasbu-r-roya”ning boshqa qo‘lyozmalari bilan bir xil.

Qo‘lyozmaning har bir sahifasi 25 satrdan iborat. Chetiga hoshiya yozilgan. Harflar asosan nuqtasiz keltirilgan. “Al-Hidoya” hadislarining tartib raqami (masalan, birinchi hadis – الحديث الأول), bobga doir hadislar (masalan, Misvok

⁹ Jamoliddin Zaylaiy. Nasbu-r-roya li ahodisi-l-Hidoya. – Istanbul: Ayasofiya kutubxonasi, № 465; Turkiya milliy kutubxonasi, Fayzulloh Afandi to‘plami, № 287; Atif Afandi kutubxonasi, № 494; As’ad Afandi kutubxonasi, № 281; Sulaymoniya kutubxonasi, № 196; Lolali kutubxonasi, № 415; Murod Mulla kutubxonasi, № 260; – Haydarobod: Asafiya kutubxonasi. <https://t.me/montakhababoahmed>; – Makka: Haram kutubxonasi, № 1251.

¹⁰ Jamoliddin Zaylaiy. Nasbu-r-roya li ahodisi-l-Hidoya. – Istanbul: Turkiya milliy kutubxonasi, Fayzulloh Afandi to‘plami, № 287.

¹¹ Abdulqodir Qurashiy. Al-Inoya bi ma’rifati ahodisi-l-Hidoya. – Istanbul: Turkiya milliy kutubxonasi, Fayzulloh Afandi to‘plami, № 34.

ishlatish buyurilgani borasidagi hadislar – (أحاديث الأمر بالسواك) qizil yozuv bilan ifodalangan. “Al-Hidoya” hadislarini quvvatlash uchun keltirilgan rivoyatlarning boshlanish nuqtasida qizil chiziq chizilgan. Biroq, 120 sahifadan keyin qizil yozuv ham chiziq ham deyarli ishlatilmaydi. Sahifalar raqamlanmagan, ularning soni 330 ta. Qo‘lyozmaning kalofon qismida asar va muallifning nomi zikr qilinib, uning haqqiga duo qilingan. Asar 808/1405-yil robiul oxir oyining 19-kuni kotib Hammud ibn Abdurahmon ibn Ali ibn Usmon ibn Ibrohim ibn Mustafu ibn Sulaymon Moridiniy Hanafiy tomonidan ko‘chirilgani qayd etilib, Allohga hamd, Rasululloh (s.a.v.)ga salavot bilan tugatilgan.

Yuqoridagi ko‘p sonli qo‘lyozmalar ular asosida chiqarilgan zamonaviy tahqiqiy nashrlarning ishonchliligini ta’minlaydi. Ya’ni, turli davrlarda yozilgan 11 ta qo‘lyozma bir-biriga muvofiq keladi hamda “Nasbu-r-roya” asari Zaylaiyning davridagi holatdan o‘zgarib ketmaganini ko‘rsatadi.

“Asarda qo‘llanilgan uslublar tasnifi” deb nomlangan ikkinchi paragrafida Jamoliddin Zaylaiyning “Nasbu-r-roya” asarini yozishda qo‘llagan usullari tadqiq qilindi. Shuni aytish lozimki, odatda hadislar taxrijiga doir ish olib borgan mutaxassislar o‘z uslubiga ega bo‘lib, qo‘llagan usullari haqida asarning kirish qismida aytib o‘tadi. Biroq, Zaylaiy “Nasbu-r-roya”ga muqaddima ham hadislar taxrijini qay yo‘sinda amalga oshirganini ham yozib qoldirmagan. Shu sababli, uning taxrijdagi usuli haqida aniq ma’lumot berish qiyin. Tadqiqot natijasida “Nasbu-r-roya” asarida Zaylaiy qo‘llagan metod aniqlanib, quyidagicha tasniflandi:

1. Asarning umumiy tuzilishi jihatidan metodi.
2. Hadis ilmiga doir masalalardagi metodi.
3. Fiqh ilmiga doir masalalardagi metodi.

Zaylaiy “Nasbu-r-roya”da mavzular sarlavhasini xuddi “al-Hidoya”da keltirilgan ketma-ketlikda, kitob, bob va fasllarga ajratib yozgan. Masalan, “Tahorat kitobi” (كتاب الطهارات), “Namoz kitobi” (كتاب الصلاة), “Tahorat qilish joiz bo‘lgan suv bob” (باب الماء الذي يجوز به الطهارة), “Vitr namozi bob” (باب صلاة الوتر), “G‘usl bo‘limi” (فصل في الغسل), “Ta’qiqlangan narsalar bayoni bo‘limi” (فصل في بيان المحرمات) kabi. Burhoniddin Marg‘inoniy bob yoki bo‘limlarga ajratmagan mavzulardagi hadislar uchun esa “Shahidga janoza namozi o‘qish borasida kelgan hadislar” (أحاديث الصلاة على الشهيد), “Mazmaza va istinshoq qilishga buyurilgani borasida kelgan hadislar” (أحاديث الأمر بالمضمضة والإستنشاق) kabi bo‘limlarni qo‘shgan. Shuningdek, Marg‘inoniy rivoyat qilmagan, biroq “al-Hidoya”ning boblariga bog‘liq hadislarini esa “Shu bobning hadislar” (أحاديث الباب) nomi ostida keltirib, ularni ham tahlil qilgan. Zaylaiy “al-Hidoya”dagi hadislarini har bir bobda alohida raqamlagan, lekin bobga oid o‘zi keltirganlarini esa u sanoqqa qo‘shmagan.

Zaylaiy hadislarini keltirish tartibi haqida bunday deydi: “Allohning yordami bilan men topgan hadislarini eng sahihlaridan boshlab zikr qilaman”¹². Bu so‘zi bilan Zaylaiy hadislarini birinchi navbatda topish oson va eng sahihlaridan boshlab

¹² Jamoliddin Zaylaiy. Nasbu-r-roya. – Bayrut: Muassasatu-r-rayyon, 1997. – J. I. – B. 162.

ketma-ketlikda quyi darajadagilarini yozib borganini aytmoqda. Zaylaiy taxrij qilgan hadisiga bog‘liq ilk keltirgan rivoyati eng sahih rivoyat hisoblanadi.

Zaylaiy tadqiq qilgan asar hanafiy mazhabi fiqhiy asari bo‘lgani e‘tiboridan, shu mazhab dalillarining manbalarini aniqlashga harakat qilgan. Shu bilan birga, boshqa mazhablarning dalillarini ham keltirgan va ularga tegishli izohlar yozgan.

Olim “Nasbu-r-roya” asarini yozishda ko‘plab manbalardan foydalangan. Iqtibos keltirilgan yoki ma‘lumoti olinganiga ishora qilingan manba ilm ahli orasida ma‘lum va mashhur bo‘lsa, asarning qiymati yanada ortishi tabiiy. Shu sabab, Zaylaiy fiqh, tafsir, hadis, tarix, lug‘at kabi fan tarmoqlaridagi eng mashhur va ishonchli manbalarning 240 dan ziyodidan istifoda qilgan. Shuningdek, u foydalangan hadis hukmlariga oid manbalarning deyarli 90 foizi hanafiy mazhabidan tashqari, qolgan mazhab ulamolarining asarlari hisoblanadi. Bu ko‘rsatkich Jamoliddin Zaylaiyning asarni yozish jarayonida o‘z mazhabiga mutassibona yopishib olmaganini tasdiqlaydi.

Dissertatsiyadagi **“Hanafiylik asoslarini mustahkamlashda “Nasbu-r-roya” asarining ahamiyati**” deb nomlangan uchinchi bobning *“Hanafiy mazhabi hukmlarini quvvatlashda asarning roli”*, deb nomlangan birinchi paragrafida “Nasbu-r-roya” yozilganidan keyingi davrda yashagan hanafiy mazhabi olimlarining ushbu asardan unumli foydalanganlari va u haqidagi fikrlari tahlil qilindi.

Jamoliddin Zaylaiyning “Nasbu-r-roya” asari o‘zida fiqhiy hukmlarni dalillovchi hadislar taxriji hamda roviylar haqida ko‘plab ma‘lumotlarni qamrab olgan ishonchli va nodir manba hisoblanadi. Ana shu ahamiyati tufayli asrlar davomida olimlar tomonidan asarga ko‘p murojaat qilib kelinmoqda. Xossatan, o‘z zamonasining yetuk hanafiy muhaqqiq ulamolari “Nasbu-r-roya”dan fiqhiy ixtilofli masalalar va hadislar tahlilida, shuningdek, “al-Hidoya” asari sharh va tarjimalarida samarali foydalanishgan. Ulardan: Abdulhay Laknaviy (vaf. 1304/1886), Taqiyuddin Nadaviy (tug‘. 1934), Muhammad Avvoma (tug‘. 1940), Said Bektosh, shuningdek, bugungi kundagi o‘zbek tadqiqotchilaridan A‘zamjon Qambarov, Akmaljon Ikromjonov, Ilhomjon Bekmirzayev, Hamidulloh Aminov va Mas‘udxon Ismoilov kabi olimlarni keltirish mumkin.

Abdulhay Laknaviy hanafiy mazhabining muhim hadis manbalaridan biri bo‘lgan “al-Muvatto”ning Muhammad Shayboniy rivoyatiga yozgan “at-Ta’liqul-mumajjad ala Muvattoi Muhammad” nomli sharhida, doktor Said Bektosh hanafiy mazhabining mashhur fiqhiy manbalari “Muxtasaru-l-Quduriy”, “Kanzu-d-daqiq”, “al-Lubob fi sharhi-l-Kitob” asarlari tahqiqida bir necha o‘rinda ma‘lum bir fiqhiy hukm uchun dalil sifatida olingan hadis “Nasbu-r-roya” asarida mavjudligiga ishora qilib o‘tadi. Masalan, “al-Lubob” asari tahorat bobida shorih tahoratning sunnatlari borasida hanafiy mazhabi hukmlarini bayon qilarkan, quloqqa mash tortishda yangi suv olish kerakmi yoki boshga olingan suv bilan mash qiladimi degan mavzuda bahs qiladi. Hanafiy mazhabida boshga olingan suv bilan mash qilish sunnat, muxoliflarda esa aksincha yangidan suv olish kerakligini aytadi. So‘ng ularning hukmini dalillovchi hadisni keltiradi, biroq u hadis namlik qurub qolsagina yangidan suv olishga dalolat qilishini aytadi. Said Bektosh bu

hadis “Nasbu-r-roya” asarida mavjud bo‘lib, bir necha manbalari ko‘rsatilganini qayd etgan.

“Al-Hidoya” asari o‘zbek olimlari A‘zamjon Qambarov, Akmaljon Ikromjonov va Ilhomjon Bekmirzayev kabi mutaxassislar tomonidan ilk bor akademik tarjima qilingan. Ushbu tarjimada ilmiy tabaqa va kitobxonlar ommasi e‘tiboridan “al-Hidoya”ning asl matnini berish bilan birga ayrim fiqhiy masalalarga qisqacha izohlar berilgan. Shuningdek, “al-Hidoya”dagi hadis roviylarining ismlari “Nasbu-r-roya” asari asosida aniqlab ketilgan.

“Jamoliddin Zaylaiyning *“al-Hidoya” hadislarini tadqiq etishdagi usuli*” nomli ikkinchi badda “al-Hidoya” asari, uning hanafiy mazhabida tutgan o‘rni, olimlarning u haqidagi e‘tiroflari, shuningdek, unda hadislarining sanadsiz keltirilishi tanqidlarga sabab bo‘lgani, ushbu tanqidlarga esa “Nasbu-r-roya” asari munosib javob bo‘lgani ochib berilgan.

“Al-Hidoya” ma‘nolarining kengligi va uslubining o‘ziga xosligi sabab ko‘plab ulamolarning e‘tiborini tortgan. Ba‘zi ulamolar, masalan Sirojiddin Kanoniy (vaf. 829/1426) “al-Hidoya”ni butun hayoti davomida takror-takror o‘qib, undan talabalarga dars bergani uchun “قَارِئُ الْهُدَايَةِ” (al-Hidoya qorisi) deya e‘tirof qilingan. Muhammad ibn Hasan Halabiy (vaf. 879/1474), Hofiz Jamoliddin Zarandiy (vaf. 750/1349) va Abu Abbos Sarujiy (vaf. 710/1310) kabi olimlar esa “al-Hidoya”ni yod olishgan. “al-Hidoya”ga bo‘lgan e‘tiborni unga yozilgan sharh, taxrij, hoshiya va muxtasarlarning ko‘pligidan ham bilish mumkin.

